

TIRIK ORGANIZMLARGA TA'SIR ETUVCHI GEOGRAFIK OMILLAR

Xo'jaqulov S.U – Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi. O'zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tirik organizmlar yashash muhiti va ularga ta'sir etuvchi geografik omillar haqida - iqlim, relyef tupro, suv resurslari va biotik omillar tahlil qilinadi. Organizmlar yashash sharoiti va moslanish jarayonlari tabiiy muhitning o'zgaruvchanligi bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'rsatib beriladi. Iqlim sharoitining (harorat namlik, yoritilish) o'simlik va hayvonat dunyosi tarkibi hamda biologik xilma-xillikka bevosita ta'sir ko'rsatishi misollar orqali yoritiladi

Kalit so'zlar: Tirik organizm, geografik omillar areal, tabiiy muhit, endemik ekosistema, ozuqa zanjiri, tabiat o'zgarishi, akklimatizatsiya, antropogen ta'sir, iqlim, muvozanat mashinasi.

GEOGRAPHICAL FACTORS AFFECTING LIVING ORGANISMS

Khujakulov S.U. is a teacher at Karshi State University. Uzbekistan.

Abstract: This article analyzes the habitat of living organisms and the geographical factors affecting them - climate, relief, water resources and biotic factors. It is shown that the living conditions and adaptation processes of organisms are closely related to the variability of the natural environment. The direct impact of climatic conditions (temperature, humidity, illumination) on the composition of the flora and fauna and biodiversity is illustrated through examples.

Keywords: Living organism, geographical factors, range, natural environment, endemic ecosystem, food chain, natural change, acclimatization, anthropogenic impact, climate, balance machine.

Dunyo boylab barcha tirik organizmlar miqyosan katta va hududlar boyicha turli miqdorda tarqalgan. Tirik organizmlarning butun yer yuzasida notekis tarqalishi, ularning o'sishi, rivojlanishi, ko'payishi, hayotiy shakllarining o'zgarib borishi tabiiy muhit sharoitiga bog'liqdir. Tabiiy muhit bu organizmlarning mavjudligi osib rivojlanishi uchun kerakli bolgan barcha sharoitlar majmui hisoblanadi. Barcha organizmlar butun hayoti davomida tashqi muhit ta'siriga nisbatan doimiy adaptatsiya jarayonlarini boshdan kechiradi va buning natijasida barcha mavjudotlar o'z yashash sharoitiga moslashadi. Har qanday muhit fizik, kimyoviy va boshqa omillarning majmui bilan namayon boladi. Omil-bu tirik organizmlarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etuvchi muhitning bir qismidir. Geografik

omillar Yer yuzasidagi barcha organizmlar iqlim , relyef, suv ,tuproq va inson faoliyati natijasida vujudga keluvchi omillar hisoblanib, ular joyning tabiiy sharoitiga tirik organizmlar hayot tarzi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tirik organizmlarga ta'sir etuvchi Geografik omillar 2 turga bo'linadi. Bular iqlim, yer yuzasi shakllari, suv, tuproq, o'simlik va va hayvonot dunyosini tashkil etuvchi tabiiy omillar, va aholi soni, xo'jalik faoliyati, texnika va texnologiya, transport va boshqa omillarni o'z ichiga oladigan ijtimoiy iqtisodiy omillar hisoblanadi. Bu omillarning barchasi tirik organizmlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bazi omillar ijobiy ta'sir etsa, boshqa biri salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tirik organizmlarga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan eng muhimlaridan biri bu quyoshning nuri, yani uning yorug'ligi hisoblanadi. Bu hayvonot dunyosi uchun zarur bo'lgan issiqlik manbai va o'simliklar hayotida fotosintez jarayonlarining borishini ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Bu jarayon atmosferadagi me'yoriy gazlar miqdori va yetarlicha biologik mahsuldorlikni taminlaydi. Bundan tashqari namlik va suv omillari ham tirik organizmlar uchun zarur hayot manbayi hisoblanadi. Bunga masalan tirikorganizm tanasidagi birgina hujayra tarkibi 70-80 foizsuvdan iborat ekanligi suvning qanchalik muhimligini bildiradi. Namlik ko'p bo'lgan joylarda o'simlik va hayvonot turlari ham ko'p bo'ladi, bu omil tirik organizmlarning yer yuzida tarqalishini belgilab beradi. Iqlim omillari o'simlik va hayvonlarning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitlar majmuini taminlaydi. Bundan tashqari yer yuzasi relyefi tog' etaklari vodiylarda qulay iqlim yetarli namlik qulay sharoit yaratib beradi. Bu omillar tirik organizmlarga to'g'ridan to'g'ri emas balki boshqa bir omillar orqali ta'sir etadi. Yer yuzining turli hududlarida o'simliklarning o'sishi va o'z navbatida hayvonlarning oziqlanishi uchun muhim hisoblangan omil tuproq omili bo'lib, u tuproqning kimyovi tarkibi va donadorligi bilan belgilanadi.

Hozirgi davrda yer sayyorasi tabiatininng o'zgarib borayotganligi tirik organizmlar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa muhit omillari o'zgarib borayotganligi tufayli sodir bo'moqda. Tirik mavjudodlar hayotiga salbiy ta'sir

etayotgan omillardan eng asosiysi inson faoliyati tomonidan vujudga kelayotgan muammolar hisoblanib, ular tirik organizmlar hayot faoliyati va yashash sharoitlarini tubdan o'zgartirmoqda. Tirik organizmlar hayoti uchun jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri cho'llashish ham iqlimning isishi, o'rmonlarning kesilishi yer resurslaridan noto'g'ri foydalanish tufayli vujudga kelmoqda. Cho'llashish jarayoni kuzatilayotgan hududlarning tirik organizmlari hayotida salbiy o'zgarishlar kuzatiladi. Jumladan o'simliklarning quyosh energiyasi ko'payishi va namlikning yetishmasligi tufayli nobud bo'lishi, yoki ayrim turlarining endemik turlarga aylanib borishi kuzatilmoqda. Hayvonlar hayotida ham bir qator salbiy ta'sir ko'satadi va ozuqaviy zanjirning uzilishi yoxud ekosistema muvozanatini buzilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari ma'lum hududlardagi suv havzalarining qurishi oqibatida ularda yashovchi tirik organizmlarning nobud bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunga misol tariqasida Orol dengizining qurib borayotganligini ko'rsatish mumkin. Orol qurib borishi bilan namlikka muhtoj o'simlik va hayvonlar yuqolishiga sabab bo'la boshladi. Dengiz tubidan kótarilgan tuz shamol ta'sirlarida yon atrofga, dalalarga yozilmoqda. Bu esa tuproqlarning shórlanishi, va hosildorlikni 2-3 marta kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Orol dengizida qurimagan avvalgi davrlarida 30 ga yaqin baliq turlari mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirda ular butunlay yuqolib ketgan. Bu jarayon inson hayotiga ham turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Bunday hollarni hozirda dunyoning turli qismlarida kuzatish mumkin. So'ngi davrlarida insoniyat hayotida shaharlashuv jarayonlarining kuchayishi, qishloq xo'jaligi yerlarini jadal o'zlashtirish bu hududlarga hayvonot dunyosining siqib chiqarilishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari tartibsiz ov jarayonlari natijasida ham ayrim hayvon turlarining keskin kamayishiga, va hatto yuqolib borishiga olib kelmoqda. O'simlik va hayvonlar tabiatininng ajralmas qismi hisoblanadi. Bularning yuqolib borishi tabiatning kambag'allashishiga olib keladi. Hozirgi davrda tabiatni muhofaza qilish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Dunyoning turli mamlakatlarida tabiatni muhofaza etish, yer yuzasining noyob o'simliklar va hayvonlarining yuqolib ketishdan saqlash va antropogen ta'sirni cheklash maqsadida turli parvarishxona, milliy bog'va qo'riqxonalar barpo etilmoqda. Shu kabi muhofaza hududlarini ko'paytirish orqali kamayib borayotgan tirik organizmlarni saqlab qolish mumkin. Hayvonlar tartibsiz ov holatini cheklash, va ularni mavsumiy jarayonlarini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligi sohalarida global isish natijasida o'simliklarning hosildorligi pasayib bormoqda. Bu muammoni oldini olish uchun aklimatizatsiya (o'simliklarni bir iqlim mintaqasidan boshqa iqlim mintaqalariga ko'chirish va ularni yangi sharoitga moslashtirish) sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. O'simliklarning yangi navlarini yaratish yuqori hosildorlikni taminlab beradi.

Qishloq xo'jaligi yerlaridan unumli foydalanish, tuproq sho'rlanishini oldini olish uchun melioratsiya tadbirlarini uzluksiz olib borish lozim. Bundan tashqari chorva mollarini tartibsiz boqilishini oldini olish tuproq qatlamining yemirilishi va cho'llashish alomatlarini kamaytiradi. Yer yuzasidagi kislorod manbayi hisoblangan o'rmon va daraxtlarni kesilishini cheklash muhimdir. Chòl va chalacho'l hududlarida kanallar orqali suv chiqarib daraxt ko'chatlarini ekish orqali turli suniy o'rmon hududlarini ko'paytirish katta samara beradi. Chòlli hududlarida suniy suv havzalarini barpo etish, daryolardan turli oqava suvlarining ko'tarilishi atmosferadagi chang zarralari miqdorining. Bu esa o'sha hududdagi nafaqat hayvon va o'simliklar balki insoniyatning salomatligi va hayoti uchun muhim ahamiyatga egadir. Eng asosiysi aholini tabiatni asrash va uni muhofaza etishga o'rgatish lozim. Buning uchun aholi o'rtasida turli tabiatni asrash to'g'risidagi tadbirlarini tez-tez o'tkazib turish lozim. Bundan tashqari tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi g'oyalarni rag'batlantirish va bu sohada "eng yaxshi g'oya" singari loyihalarni joriy etish, vujudga kelayotgan muammolarni yechimlarini topishda katta samara beradi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ham turli tabiatni muhofaza qilish va uni asrash to'g'risidagi fanlarni joriy etish muhimdir. Yosh avlodnig ongiga ilk

bolalik davridanoq bu tushuncha larni singdirish lozim. Zero - yer yuzasining tabiatining kelajakdagi holati yoshlar qo'lidadir. Turli sanoat sohalarida noananavi (suv, shamol quyosh) energiya turlaridan foydalanish, sanoat chiqindilarini kamaytirish va uni qayta ishlash texnologiyalarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi geografik omillar muvozanatida muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytganda geografik omillar hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan va uni o'zgarishiga sabab bo'luvchi sharoitlar majmui hisoblanadi. Tirik organizmlarga bu omillar ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi davrda tirik organizmlar uchun salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan eng asosiysi insonning xo'jalik va sanoat faoliyati natijasida vujudga kelmoqda. Bu ta'sir butun yer yuzasi tabiatni o'zgartirishga olib kelmoqda va tirik organizmlarning hayotiga katta xavf tug'dirmoqda. Buning oldini olish ham insoniyat qo'lidadir. Geografik omillar Yer yuzasi tabiatni muvozanatida saqlab turadi. Bu muvozanat mashinasining buzilishi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bu borada tabiatni asrash chora- tadbirlari muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.X.To'ychiyev ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Toshkent 2020-y.
2. Alimdjanov N.N. Namangan Bigeografiya Toshkent 2018-y. 2022-yil .
3. Qurbonov P. R., Qo'ldosheva G. M. Ecological-geographical problems in the residential areas of kashkadarya region //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-1 (132). – С. 617-619.
4. Qurbonov P. R., Botirov B. Z. The impact of global climate change on urban development //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-1 (132). – С. 613-616.
5. Safarov I. B., Chorshanbiyeva R. A. Qashqadaryo viloyatidagi ekologik-geografik muammolar //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-2 (129). – С. 153-157.
6. Safarov I. B. et al. Iqlim o'zgarishini qishloq xo'jaligiga ta'siri //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-2 (129). – С. 158-161.
7. Сафаров И. Б., Халилов Н. Х. Экономико-географические проблемы градостроительства верхне-Кашкадарьинской области //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 707-713.